FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 30 Issue 4, 2024-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol30_iss4/a78

UO‘K: 821.512.133-1(09)`06

HOZIRGI ARUZIY SHE’RLARDA FONETIK HAMDA LEKSIK-STILISTIK O‘ZGARISHLAR

ФОНЕТИЧЕСКИЕ И ЛЕКСИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ СТИХАХ АРУЗА

PHONETIC AND LEXICAL-STYLISTIC CHANGES IN CONTEMPORARY ARUZ POEMS

Nazarova Dildora Ilhomovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)., dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi aruziy she’rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o‘zgarishlar haqida fikr yuritiladi. Mumtoz she’riyatning barcha janrlariga daxldor aruz vazni xalqimiz badiiy tafakkur va so‘z san’ati tarixi bilan chambarchas bog‘liqligi, bois u hamisha she’rshunos olimlarning diqqat markazida bo‘lgan va dolzarb vazifalardan biri hisoblangan. Ma’lumki, istiqloldan so‘nggi yillarda, qisqa muddat ichida tarixiy madaniy merosimizga alohida e’tibor berilib, chuqur ilmiy asosda o‘rganilishi yo‘lga qo‘yildi. Xususan, istiqlol baxsh etgan ijodiy erkinlikdan foydalanib, xalqimiz an’analarini tarixiy-ilmiy aspektda tekshirish yo‘lga qo‘yildi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются фонетические и лексико-стилистические изменения в современных арузских стихотворениях. Необходимо специально исследовать основы обновления. Вес аруза, распространяющийся на все жанры классической поэзии, тесно связан с художественным мышлением и историей искусства слова нашего народа, поэтому он всегда присутствует в творчестве. в центре внимания ученых-поэтиков и считается одной из актуальных задач. Известно, что в последние годы после обретения независимости за короткий период нашему историко-культурному наследию было уделено особое внимание, его начали изучать на глубокой научной основе. В частности, используя творческую свободу, предоставленную независимостью, традиции нашего народа исследовались в историко-научном аспекте.

Abstract

This article discusses the phonetic and lexical-stylistic changes in current Aruzian poems. It is necessary to specially research the basics of renewal. The weight of aruz, which applies to all genres of classical poetry, is closely related to the artistic thinking and the history of the art of words of our people, so it is always in the center of attention of poetic scholars. and is considered one of the urgent tasks. It is known that in the last years after independence, in a short period of time, special attention was paid to our historical and cultural heritage, and it was started to be studied on a deep scientific basis. In particular, using the creative freedom granted by independence, the traditions of our people were investigated in a historical-scientific aspect.

Kalit so‘zlar: *imola, bo‘g‘in, hijo, bahr, radif*

Ключевые слова: *имола, слог, бахр, радиф, рифма.*

Key words: *imola, syllable, bahr, radif, rhyme*

KIRISH

Zamonaviy shoirlar aruzni istifoda etishda, asosan, mumtoz poetika qonun-qoidalariga rioya etgan bo‘lsalar-da, ammo bu davr aruzi ichida maxsus fonetik hodisalarning kuchayganligi kuzatiladi. Istihlof, azl, taslim kabi hodisalar ba’zan sun’iylikni keltirib chiqardi, ayni paytda to‘g‘ridan-to‘g‘ri aruzdan chekinish, chetga chiqish hollari ham ko‘rinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Istiqlol davri she’riyatida aruz she’riy tizimi asosida g‘azal va boshqa janrlarda ijod etishga qiziqish bir qadar ortdi. Bu borada, ayniqsa, U.To‘ychiyev va A.Hojiahmedovning ishlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Jumladan, U.To‘ychiyevning “O‘zbek poeziyasida aruz sistemasi” monografiyasi aruzning nazariy asoslari hamda turkiy she’riyatdagi tadrijiy taraqqiyotini o‘rganishda qimmatli manba bo‘lsa, A.Hojiahmedovning “O‘rta maktabda aruzni o‘rganish”, “O‘zbek aruzi lug‘ati” kabi qator kitoblari aruzni o‘rganish va o‘rgatish uslubiyati uchun hozirda birlamchi manbalar sanaladi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

NATIJA VA MUHOKAMA

Mustaqillik davri aruz vaznida ro‘y bergan o‘zgarishlarni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

I. Mumtoz aruzshunoslik nuqtai nazaridan xato bo‘lsa-da, hozirgi zamon tilshunosligi qoidalariga, o‘zbek tilining holatiga va boshqa qoidalarga ko‘ra oqlash mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar.

2. Mumtoz aruzshunoslik nuqtai nazaridan xato, shuningdek, hozirgi kunda ham oqlash mumkin bo‘lmagan nuqsonlar.

Birinchi guruhga quyidagi o‘zgarishlarni kiritish mumkin:

1. Misra ichida bir cho‘ziq va bir qisqa /-U/, misra so‘ngida o‘ta cho‘ziq / – – / hisoblangan «shiq», «dard», «sarv» kabi so‘zlar bir cho‘ziq hijo sifatida olinmoqda. Barcha adabiyotlarda bunday so‘zlar bir cho‘ziq va bir qisqa hijoga o‘tishi ta’kidlanadi. Masalan, Mirzaahmad Olimovda shunday ruboiysi bor:

Bo‘lsak-da yomon, bizni suyar ham bordir,
Dard bormi, mehr bormi – tuyar ham bordir.
Har kas kabi biz orqali o‘z jonigamas,
Mard kas kabi bizlarga kuyar ham bordir.

Bu baytlardagi «dard», «mehr», «mard» so‘zlari bir cho‘ziq hijo sifatida qo‘llanilgan. Bunday so‘zlar o‘zbek fonetikasiga ko‘ra va shu bilan bog‘liq barmoq she’riyatida bir bo‘g‘in deb qaraladi. Shoirlar ijodining katta qismi barmoqdaligiga e’tibor qaratsak, mazkur o‘zgarish sababi oydinlashadi.

Xuddi shu tipdagi «rost», «do‘st», «qand» singari so‘zlar hozirgi she’riyatda faqat bir cho‘ziq hijo deb olinmoqda. Masalan, Erkin Vohidovda:

Rost, g‘azal avjida barcha oy ila Zuhro emas.
- Y - - Y - - Y - - Y - - Y -

Bunday o‘zgarish o‘zbek tilining orfoepik qoidalari bilan bog‘liq. «Samarqand ..... band, go‘sht, past singari so‘zlarning oxiridagi d, yo, t undoshining og‘zaki nutqda tushib qoldirilishi /Samar-qan, go‘sh, pas singari/ ixchamlikka intilish nuqtai nazaridan, tilimiz tabiatini hisobga olgan holda orfoepiya normasiga mos keladi deyish mumkin».

Navbatdagi o‘zgarish davr, qadr, sabr, umr tipidagi so‘zlar bilan bog‘liq. Aruz ilmiga ko‘ra bunday so‘zlar bir cho‘ziq va bir qisqa hijo. Hozirgi g‘azallarda esa ular teskari paradigmada, ya’ni bir qisqa va bir cho‘ziq ko‘rinishda / Y - / berilmoqda.

Isroil Subhoniydan:

Ajab Mansu/ri Xallojni / kufr deb dor/ga osmishlar/
Y - - - Y - - - Y - - - Y - - -

Mazkur o‘zgarishning ikki asosi bor. Birinchisi, aruzga barmoq vaznining ta’siri. Bu tipdagi so‘zlar o‘zbek fonetikasida bir bo‘g‘in deb qaralsa-da, barmoq she’riyatida ikki bo‘g‘indek qo‘llaniladi. Masalan, Mirzo Kenjabekning o‘n bittalik turkumidagi quyidagi misralarida sabr, qabr so‘zlari ikki bo‘g‘in va bu hol g‘azallarga ham ko‘chgan:

Aljabrning jabrin chekib sabr-la,
Al-Xorazmiy yondi oxir qabr-la.

Ikkinchisi, bu so‘zlarning talaffuzi bilan bog‘liq. Qadr, kufr, umr, sehr so‘zlaridagi dr, fr,mr, hr tovushlarining orasiga qisqa /i/ fonemasini qo‘shib talaffuz qilinadiki, ular qodir, sobir, ko‘mir, sohir so‘zlaridagi i fonemasi bilan bir xil, transkripsiyada ko‘rsak, qadr ~/qadir/, kufr-/kufir/, umr - /umir/, sehr - /sehir/ bo‘ladiki, ularning qisqa va bir cho‘ziq hijo deb qo‘llanishi o‘zini butunlay oqlaydi.

4. Hozirgi kunda baytlardan iborat qofiyalanish tartibi va romantik uslubi bilan shaklan g‘azal, lekin aruz vazniga tushmaydigan she’rlar uchrab turadi. Yusuf Shomansurnpng «Barmoqdagi g‘azallar» turkumi ostidagi she’rlari, Anvar Obidjonning Gulmat turkumidagi g‘azallari shunday she’rlar sirasiga kiradi. Bu shakldagi g‘azallar adabiyotimizda ko‘rinmagan edi. Ularni o‘zbek she’riyatida yangi hodisa deb qarash mumkin.

Ikkinchi guruh sirasiga kiruvchi o‘zgarishlar hozirgi aruz vaznidagi ayrim nuqson va xatoliklardan iborat.

I. Ba’zan yosh shoirlar ayrim hollarda unlilar sifatini aniqlashda xatolikka yo‘l qo‘ymoqdalar. M.Abdulhakimovning «havasi» radifli g‘azali ramali musammani mahbuni mahzuf bahrida. G‘azalning to‘rtinchi –

Qurigay qancha tiniq, pok esa-da jilg‘a agar

Uning har qatrasida bo‘lmasa ummon havasi

baytida birinchi misra boshidagi “qurigay” so‘zining birinchi bo‘g‘inini vazn talabi bilan shartli ravishda cho‘ziq hijo deb olish mumkin. Shuningdek, ikkinchi misradagi “uning” so‘zini ham uni deb o‘qib ketish mumkin. Lekin shu so‘zdagi “u” cho‘ziq bo‘lolmaydi. Bunda vazn buzilgan. Yoki Usmon Qo‘chqorning:

Oqil erdi / mahramim, ko‘z/dan xobim quv/gil dedi.

misrasidagi ***x o b i m*** so‘zidagi birinchi hijo qisqa bo‘lolmaydi, chunki xobim so‘zi alohida holda bir yarim hijoga teng. Egalik qo‘shimchasi qo‘shilib, uni bir cho‘ziq hijo deb olish mumkin, xolos. Vazn qo‘pol ravishda buzilgan.

2. Ma’lumki, she’riyatda vazn talabi bilan ayrim so‘zlarni o‘zgartirib qo‘llash mumkin. Masalan, ikki so‘zini ***iki, b i l a n n i b i r l a , g u l i s t o*** *n* ni gulsiton, issiq so‘zini isiq deb qo‘llangan. Hozir ba’zi o‘rinli hollarda mazkur istisno-imtiyozdan foydalanilmayotir. Masalan, Erkin Vohidovning quyidagi misralarini bunga misol qilib ko‘rsatish mumkin:

Sevgi nazmiga jahonning gulistoni etmagay

Yoki:

Ikki yor vaslini istab, ikki ishq so‘zin eshitsam,

Ikki ko‘zim ko‘ru, ikki qulog‘im mayli kar bo‘lsin.

Agar shoir bu misralarida “guliston” so‘zini “gulsiton”, “ikki” so‘zini “iki” shaklida berishi lozim edi va shunda vazn saktaligi bartaraf etilardi.

Shunday qilib, shoirlarni yangicha aruzga munosabatiga ko‘ra shartli ravishda 3 katta avlodga bo‘lish mumkin:

“Birinchisi – asosan, XX asrda aruzda ijod qilgan va bunda mumtoz she’riyatimizning deyarli barcha an’analarini davom ettirgan Habibiy, Charxiy, Chustiy, qisman Sobir Abdulla kabi ijodkorlar guruhi.

Ikkinchisi – zarurat bo‘ldi deguncha, bemalol aruzga murojaat etgan va mumtoz an’analarni yangi paydo bo‘lgan realistik adabiyot tamoyillari bilan uyg‘unlashtirgan Hamza (“Devoni Nihoniy”dan keyin), Cho‘lpon, Usmon Nosir, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Oybek singari ulug‘ shoirlar guruhi.

Uchinchisi – aruzni qaytadan tiriltirgan, unga o‘zining nozik intim tuyg‘ularini ham ahyon-ahyonda emas, istalgan paytda, deyarli to‘lig‘icha singdira olgan va zamonaviy aruzni haqiqiy ma’nodagi lirik mazmun bilan ham boyitgan Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Jumaniyoz Jabborov, Muhammad Ali, Shavkat Rahmon, Ikrom Otamurod, Eshqobil Shukur, Asqar Mahkam, Mirzo Kenjabek, Sirojiddin Sayyid, Mirzaahmad Olimov, Zikrilla Ne’mat, Isroil Subhon kabi ijodkorlar guruhi”.

Yuqorida nomlari zikr etilgan shoirlar zamonaviy aruzni o‘zlarining ijodlari bilan yanada boyitdilar, unga yangicha jilolar baxsh eta oldilar.

Zamonaviy aruzni turkiy she’riyatning qonun-qoidalari asosida buzmay, to‘lig‘icha, bor bo‘y-basti bilan voqelantirib kelayotgan ijodkorlarimizdan biri bo‘lgan Erkin Vohidovning she’rlarida aruz eng nozik xususiyatlarini-da mujassam etganini ko‘ramiz. Hassos shoirimiz Erkin Vohidovning “Yoshlik devoni” deb nomlanuvchi 4 jildlik saylanmasining 3-jildi “Umrim daryosi” nomi ostida chop etilgan. Bu to‘plamda go‘zal ash’or namunalarini uchratish mumkin. Ushbu to‘plamdan joy olgan she’rlarning aksariyati aruz vaznida bitilgan. Shu sababli aruz namunalari to‘plamning birinchi qismida “Shavqu armonim g‘azal” sarlavhasi bilan birlashtirilgan. Iste’dodli shoir she’rlarining ko‘pchilik qismi ramal bahrida (afoyili: foilotun – V – –) yozilgan. Masalan:

Ik-ki-miz-ning / o‘r-ta-miz-da / yo‘l, dil-o-ro/ bir qa-dam,

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

Shun-cha-lar mush/ kul-mi qo‘y-moq/ sen-ga, ze-bo,/ bir qa-dam.[83]

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

Foilotun / foilotun / foilotun / foilun

Ko‘rinyaptiki bu she’r ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan. Shoirning “Umrim daryosi” to‘plamidagi g‘azallarning bir qismi esa hazajda (afoyili: mafoiylun V – – –) ham yozilgan. Masalan:

[83] Воҳидов Э. Сайланма. 3-жилд. Умрим дарёси. – Т., 2001. – Б.15.

Mu-hab-bat bir-/ la chek-kan g‘ur-/ ba-ting ro-hat / bi-lan teng-dur
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
Mu-hab-bat-siz/ va le-kin ish-/ ra-ting kul-fat/ bi-lan teng-dur[84]
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
Mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun

“Muhabbat birla...” deb boshlanuvchi bu g‘azal hazaji musammani solim vaznida yozilgani ko‘rinib turibdi.

Ushbu to‘plamdagi she’rlarning ko‘pchilik qismi ramal bahrida, faqat bir qismigina aruzning hazaj bahrida bitilgan. “Umrim daryosi” to‘plamining “Shavqu armonim g‘azal” deb nomlanuvchi qismida jami aruzda yozilgan 41 ta she’r berilgan bo‘lib, ulardan 22 tasi ramal bahrida bitilgan. G‘azallarning 17 tasi esa hazaj bahri namunasi hisoblanadi. Shulardan 9 tasi hazajning solim ko‘rinishida bitilgan bo‘lsa, 6 tasi mustazod vaznida, ya’ni hazajning axrabi *makfufi mahzuf* zihofida yozilgan. Qolgan 2 ta ash’or o‘zining maxsus vazn tarmog‘iga ega bo‘lgan janrlardan biri – mustazod namunasi hisoblanadi:

Gul fas-li- / da soz o‘l-di / ya-na ah-li / na-vo-lar,/
– – V / V – – V / V – – V / V – – /
kuy bosh-la-/ di yo-na,
– – V / V – –
Ne tong-ki, / go‘-zal bo‘l-di / ja-hon, e-ru / sa-mo-lar,/
– – V / V – – V / V – – V / V – – /
(Maf’uvlu / mafoiylu / mafoiylu / fauvlun
har til-da / ta-ro-na.
– – V / V – –
maf’uvlu / fauvlun)

Shuningdek, “Bobil minorasi” nomli she’r rajazi musammani axrab vaznida bitilgani kuzatiladi. «Piyola» deb nomlanuvchi she’rning vazniy tahlili ham o‘ziga xos:

Kitobda yozilgan ko‘rinishda:
Tup-roq-o‘ /zi-ne-as-lan, /
- - V / - V - -
Un-dan-gu / vo-la-bo‘l-gay
- - V / - V - -
Jo-non-qo‘ / li-da-tup-roq /
- - V / - V - -
Jo-non-pi / yo-la-bo‘l-gay
- - V / - V - -

Bunda *maf’uvlu foilotunning* takrori asosida *muzori’i murabba’i axrab* vaznini yuzaga keltiradi. Aslida bu she’r – g‘azalning paradigmasi, afoyili va vazni quyidagicha bo‘lishi kerak:

Tup-roq-o‘ /zi-ne-as-lan /un-dan-gu / vo-la-bo‘l-gay/
- - V / - V - - / - - V / - V - -
Jo-non-qo‘ / li-da-tup-roq /jo-non-pi / yo-la-bo‘l-gay
- - V / - V - - / - - V / - V - -
(Maf’uvlu /foilotun /maf’uvlu/ foilotun)

Bu o‘rinda *muzori’i musammani axrab* vazni namunasi sanaladi.

Avvalo aytish lozimki, azl, vasl, imola, istihlof, tag‘yir kabi hodisalar bugungi aruzshunoslar talqinida aruznavislik tajribasida uchraydigan qonyniy hodisalar, «shu vaznning sir-sinoati»dir, faqat ular sun’iylikka, til qoidalarining buzilishga, ixtilofga yo‘l ochmasligi lozim. Bizningcha, sanab o‘tilganlarning ichidan azl, xususan, tag‘yir va istihlof hodisalari ko‘proq sun’iy talaffuzni keltirib chiqaradi, hech bo‘lmaganda, o‘zbek tili misolida shunday. Fors-tojik tilida ham shunday bo‘lsa kerakki, Atoulloh Husayniy «Badoyi’-us-sanoyi’» da tag‘yirni she’r yozishda yo‘l qo‘yiladigan ayblar qatorida zikr etadi.

[84] Воҳидов Э. Сайланма. 3-жилд. Умрим дарёси. – Т., 2001. – Б.10.

«Istihlof – aruz atamalaridan biri bo‘lib, jonli tilda qisqa talaffuz qilinuvchi ba’zi unlilarni she’rni o‘qish chog‘ida cho‘ziq unli sifatida talaffuz qilishni ifodalaydi». Zamonaviy shoirlar ijodida istihlof hodisasi ko‘p uchraydi. Chunonchi, Jumaniyoz Jabborovning “Navbahor (Muqimiy g‘azaliga muxammas)” g‘azalini olaylik:

Ishq aro o‘tmishda, do‘stlar, ne balolar bor ekan,
Sevgi*da* ming Qaysu ming Farhodga olam tor ekan.
- V - - / - V - - / - V - - / - V -
Necha ag‘yor izmi*ni bu* yo‘lda inkor aylasang,
Yoxud ul bemehrni ah*di*ga iqror aylasang,
Qilmagay ***ba’zi***da do‘st ham iltifot, zor aylasang,
Malhab istab kimsadin, dil zahmin izhor aylasang,
Chorae qilmoqdan o‘z*ga* usti*ga* tirnog‘lar.

Yuqoridagi misralar *foilotun, foilotun, foilotun, foilun*ning takroridan tashkil topgan bo‘lib, ramali musammani mahzuf vaznida yozigan. Shoir bunda oshiqlar azaldan ne-ne balolarni boshdan kechirganlarini, ba’zida esa o‘zingga do‘st bilgan kimsalaring ham vafo qilmasligini aytmoqchi bo‘ladi.

She’riy parchalarda kursiv bilan belgilangan hijolar istihlof hodisasiga misol bo‘ladi. 2-misradagi 3-hijo (*sev-gi-da* - V *-)* cho‘ziq hijo sifatida berilgan. Aslida jonli tilda (*sev-gi-da* – VV) tarzida qisqa hijo tarzida talaffuz qilinadi.

Keyingi misralarda keltirilgan kursiv bilan belgilangan barcha misollar jonli tilda qisqa hijo sifatida talaffuz qilinadi. Ammo shoir bu misollarda vazn talabi nuqtayi nazaridan ularni cho‘ziq hijo sifatida talqin etgan. Matnda kursiv bilan yozilgan hijolarda (ular 6 ta) istihlof hodisasi ro‘y bergan, ammo bunday talaffuz sun’iydir.

Shuningdek, istihlof hodisasini Sirojiddin Sayyidning “So‘roq” nomli she’rida ham uchratishimiz mumkin:

Yuzlaringda na alam bordir, na yosh,
Yoki sen ham *qo‘*shilib sotganmiding?
- V - - / - V - -/ - V -

Ushbu she’r ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan bo‘lib, baytning 2-misrasiga qo‘shilib, so‘zining 1-hijosi jonli talaffuzda qisqa talaffuz qilinishi kerak. Ammo shoir vazn talabidan kelib chiqib, uni cho‘ziq hijo o‘rnida qo‘llaydi.

Ikki daryo arosinda vatan tutgan iki xalqim,
V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -
Qadim shon-Shavkatingu chekkan ul jabringga sallamno.
V - - - / V - - -/ V - - - / V - - -

Mirzaahmad Olimov qalamiga mansub “Sallamno” she’ri hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Yuqoridagi misralarni tahlilga tortadigan bo‘lsak, birinchi baytda vazn talabi bilan yuz bergan o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, “ikki” so‘zi “iki” tarzida berilgan. Bunda biz yuqorida keltirilgan “iki” shakliga morfologik jihatdan xato yozilgan so‘z sifatida emas, balki aruz vazni talabi bilan yuz bergan fonetik hodisa sifatida qarashimiz lozim. Bu hodisa ilmi aruzda o‘zini oqlaydi. Yuqoridagi baytda mafoiylunni hosil qilish uchun V--- (qisqa, cho‘ziq, cho‘ziq, cho‘ziq) hijoni ifodalagan so‘zni qo‘llash zarur. Shoir ikki (--) so‘zining o‘zini qo‘llaganda, ikkita cho‘ziq hijo yuzaga kelardi. Bir qisqa va bir cho‘ziq hijoni ifodalash maqsadida muallif so‘zni iki (V-) tarzida ifodalashni ma’qul topadi. Shuningdek, ushbu baytning birinchisi misrasida *arosinda* so‘zi ham mavjud bo‘lib, bu jumla, odatda, *orasida* tarzida ishlatiladi. Orasida so‘zi – VV (cho‘ziq, qisqa, qisqa, qisqa) hijoni ifodalaydi. G‘azalning vazni talabidan kelib chiqib shoir arosinda V--- (qisqa, cho‘ziq, cho‘ziq, cho‘ziq) hijo shaklini qo‘llaydi.

Fors-tojik adabiyotshunosligi zaminida shakllangan turkiy aruz nazariyasi, aytish mumkinki, grafik nazariya edi, harf nazariyasi edi. Ya’ni unga ko‘ra, sokin va mutaharrik harflar, ularning birikishidan hosil bo‘lgan sabab, vatad va fosila juzvlarining muayyan tartibdagi takroridan vazn hosil bo‘ladi. Mumtoz adabiyotshunoslikda ana shu harflar va juzvlar vaznni aniqlash birliklaridir. Ammo bu juda shartli bir usuldir. Chunki she’r vazni o‘qish-eshitish asosida idrok qilinadigan hodisa bo‘lib, uni grafik ko‘rinish asosida aniqlash muayyan she’r vazni haqida noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkin. Adabiyotshunosligimizda ba’zan she’rning vaznini uning grafik ko‘rinishiga ko‘ra

aniqlashga urinish usuli tufayli barmoq vaznidagi she’rning sarbast yoki nasriy she’r deb baholanganini ko‘rish mumkin.

Yirik aruzshunos Abdurauf Fitrat XX asr boshlaridayoq she’r vaznini o‘lchashda o‘qish-eshitish usulini qo‘llaydi. Fitratning fikricha, she’r vaznini o‘lchash «quloq vositasi bilan» amalga oshiriladi.[85] «Aruz haqida suhbatlar»dagi mana bu fikr esa go‘yo Fitrat fikrini to‘ldiradi: «Rukn misraning o‘qilish usulini ifoda qilishi kerak».[86]A.Fitratning «Adabiyot qoidalari»da yana shunday bir mulohaza mavjud: «Aruzning eng ohangli, eng o‘ynoqi bir vaznida yozilgan turkcha bir she’rni qishloqda yashagan, o‘z tilining ohangini buzmagan bir turkka o‘qitsangiz, tinglagani turkcha so‘zlarning cho‘zulib, tuzatib, bemaza etilib aytilganini eshitgach, albatta kuladir-da, tinglagani she’rning bir turk og‘zidan chiqmaganiga hukm qiladir»[87]. Bizningcha esa, «o‘z tilining ohangini buzmagan turk» tomonidan chiqarilajak «hukm» faqat so‘zlarning notabiiy talaffuzi bilan emas, balki she’rning vaznini bilmasdan o‘qilganligi bilan ham bog‘liqdir. Chunki, bilamizki, Fitrat «turkiy til aruz vazniga mos emas» deyuvchilar tarafida bo‘lgan; ehtimolki, shu fikrni birinchilardan bo‘lib ko‘tarib chiqqanlardan edi. Bu masala keyinchalik adabiyotshunosligimizda katta bahsu munozaralarga ham sabab bo‘ldi. Ammo nazariyotchilarning har qancha munozara-yu bahslariga qaramay, aruz she’riyatimizda yashashda davom etmoqda; **mustaqillikka erishilishi tufayli madaniy merosga munosabatning o‘zgarishi esa shoirlarimizning aruzga yanayam ko‘proq murojaat qilishlarini ta’minladi.**

Bundan tashqari nuktadon tilshunos olimlarimiz ham aruzning o‘zbek tili xususiyatlariga yot emasligini ta’kidlaydilar. Chunonchi, professor Hamid Ne’matovning ta’kidlashicha, o‘zbek tilidagi bo‘g‘inlarni xohlaganda cho‘zib, xohlaganda qisqa talaffuz qilaberish mumkin – bu ba’zan talaffuzda notabiiylikni keltirib chiqarsa-da, so‘zning ma’nosiga ta’sir qilmaydi. Shu jihatiga ko‘ra o‘zbek tili aruz uchun juda qulay. Professor Ummat To‘ychiev ham o‘zbek aruzini tajriba fonetika asboblari vositasida tekshirish «aruz o‘zbek tiliga (shuningdek, turkiy tillarga ham) mos kelmaydi, degan fikrga chek qo‘ydi, bu fikrni rad etdi» degan xulosa beradi. Bu vaznning asrlar bo‘yi o‘zbek she’riyatining bosh vazni maqomini saqlab turganligi va bugun ham istifoda etilayotganligining asoslaridan biri shudir. Xuddi shunday qarash akademik A.Rustamovning ishlarida ham uchraydi. Yuqoridagi iqtiboslar va mulohazalarning barchasi she’rda vaznning hosil bo‘lishi va uni aniqlash o‘qish-eshitishga asoslanishi lozimligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Yana bir holatni alohida ta’kidlash kerakki, aruzdagi azl, vasl, imola, istihlof kabi fonetik hodisalar juzvlar asosida emas, aynan talaffuz asosida yuzaga keladi va izohlanadi. Vaholanki, bu hodisalar aruz juzvlar asosida aniqlangan davrlarda ham mavjud bo‘lgan va aruzning ajralmas qismi sifatida yashab kelmoqda. Bundan tashqari Atoulloh Husayniy «Badoe’ us-sanoyi’»da asl ruknlar haqida yozaturib, ba’zilar ularning soni sakkizta, ba’zilar o‘nta deyishlarini qayd etadi. Ya’ni, olimning yozishicha, *mustaf’ilun* va *fo‘ilotun* arabcha yozuvda ikki xil – *mustaf’ilun*|*mustaf’lun* hamda *fo‘ilotun*|*fo‘lotun* tarzida o‘qilgan. Demak, mumtoz aruzshunoslik asosini grafik usul tashkil etsa-da, amalda o‘sha paytlar ham aynan o‘qish-eshitish usuli qo‘llangan, desak yanglishmaymiz.

Topdimi bilmam, asrlar dashtida ovora el,
Toki haq birlan adolat istagidir barhayot.
(N.Afoqova “Nizomiddin Alisher barhayot” 18-bet)

“Nizomiddin Alisher barhayot” nomli ushbu g‘azal ramal bahrida yozilgan bo‘lib, ikkinchi misrada bilan o‘rnida foilotun takrori talabidan kelib chiqib, shoira birlan shaklini qo‘llaydi.

Nadur shoir, nadur shoirlik, ey do‘stlar, nadur ilhom?
Agar rutba, vagar qismat, vagar darddur va yo payg‘om?
(E.Vohidovga bag‘ishlangan 22-bet)

Erkin Vohidovga bag‘ishlov tarzida bitilgan bu she’rda ham shoira vazn talabi bilan bir nechta so‘zlarni o‘zgargan shaklda qo‘llaydi. Bugungi til qoidalariga binoan nimadir shaklida qo‘llanuvchi so‘roq so‘zni nadur tarzida ifodalagan bo‘lsa, va agar so‘zlarida bir unlini tushirib qoldirish natijasida so‘zni vagar shaklida qo‘llab, hazaji musammani solim vaznida ajoyib bir g‘azalni yaratdi.

Toleying deb yig‘lab o‘tganlar ruhi shod o‘ldi, chun

4. Фитрат А. Аруз ҳақида. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.
5. Рустамов А. Аруз ҳақида суҳбатлар. – Т.: Фан, 1972. – 56 б.
6. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 112 б.

Har tuning qadr o‘ldi, har kun Navro‘zingdan aylanay.

(N.Afoqova “Ey Vatan” 5-bet)

Buyuk Ipak yo‘lida goh yoyib sarvat,
Guhar bo‘ldi somon ichra bu hur mulkat.

(Oydin Hojiyeva “Buxoro taronasi” 393-bet)

Shoira Oydin Hojieva qalamiga mansub “Buxoro taronasi” nomli qasidasida ham so‘zlarning fonetik o‘zgarishga uchraganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ikkinchi misrada qo‘llanilgan guhar so‘zi gavhar so‘zining vazn talabidan kelib chiqib qo‘llanilgan shaklidir. Chunki bu qasida hazaji musaddasi solim vaznida yozilgan bo‘lib, V - - - (qisqa, cho‘ziq, cho‘ziq, cho‘ziq) hijolaridan tashkil topgan. Agar shoira ikkinchi misrada so‘zni gavhar shaklida qo‘llaydigan bo‘lsa, vaznning hijolar tartibi butunlay o‘zgarib ketardi. So‘zning Guhar shaklibir qisqa, bir cho‘ziq hijo(V -)dan tashkil topgan. Gavhar esa ikki cho‘ziq hijo (- -)lidir. Shuningdek, ikkinchi misra so‘ngida qo‘llanilgan mulkat so‘zi ham mamlakat so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan ko‘rinishidir. Bu shakl ham vazn talabidan kelib chiqib tanlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, badiiy-estetik tafakkurdagi jiddiy sifat o‘zgarishlarini, ma’naviy-intellektual yangilanish belgilarini barcha adabiy tur va janrlarda yaratilgan asarlarda kuzatish mumkin. Bu, ayniqsa, she’riy janrlarda yorqin namoyon bo‘lmoqda. Unda zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg‘ularni aks ettirish barobarida, she’riyat jamiyatimizning har bir a’zosida mustaqillikka shukronalik, kelajakka ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Воҳидов Э. Сайланма. 3-жилд. Умрим дарёси. – Т., 2001. – Б.15.
2. Воҳидов Э. Сайланма. 3-жилд. Умрим дарёси. – Т., 2001. – Б.10.
3. Фитрат А. Аруз ҳақида. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.
4. Рустамов А. Аруз ҳақида суҳбатлар. – Т.: Фан, 1972. – 56 б.
5. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 112 б.
6. Quvvatova, D., & Nazarova, D. I. (2020). The rubai genre in the works of Jamal Kamal. *The American Journal of Social Science and Education Innovations/Dilrabo Quvvatova, DI Nazarova*, (9), 346-352.
7. Nazarova, D. (2019). THE INTERPRETATION OF EDUCATIONAL IDEAS IN THE POEMS OF JAMAL KAMAL. *Theoretical & Applied Science*, (11), 136-138.
8. Nazarova, D. I. (2020). The foundation of Kamol Jamol's poems is pain. In *Conference of Management of Islamic Education Leadership In The Era of Revolution* (No. 6, pp. 1-3).
9. Nazarova, D. I. (2020). Feelings of lyric heroes in Kamol Jamol’s work. In *Conference of Management of Islamic Education Leadership In The Era of Revolution* (No. 6, pp. 1-3).
10. Nazarova, D. I. (2020). Jamol Kamolning Asru radifli g‘azaliga yozgan muxammasi. *Ilim ham ja'miyet. Ilmiy-uslubiy jurnal,(1)*, *93*.
11. Nazarova, D. (2019). POETRY OF JAMAL KAMOL. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *1*(7), 186-189.
12. Назарова, Д., & Зойирова, Д. А. (2022). ЖАМОЛ КАМОЛ ДОСТОНЛАРИНИНГ БАДИИЙ ҚУРИЛИШИ. *Scientific progress*, *3*(1), 934-944.